

SO'ZLASHUV USLUBIDA TEJAMLILIKNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022>.

Toirova Guli Ibragimovna

f.f.d. O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, Buxoro davlat universiteti

Anatatsiya: Ushbu maqolada tejamkorlik tamoyili til taraqqiyotini xarakterlab beruvchi omillardan biri ekanligi, uning tildagi mohiyati, qisqa vaqt birligi mobaynida maksimum axborot uzatishni ta'minlashi, boshqacha qilib aytganda, tilning muloqot funksiyasini oshirishga ko'maklashishi, til hamisha ortiqcha narsalardan, ya'ni o'zida axborot tashimaydigan va tushuntirishga ko'maklashmaydigan so'z, bo'g'in va grammatik shakllardan xoli bo'lishga intilishi o'rganiladi. Tejamkorlik ham, qisqaruv ham til taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shadigan hodisalar bo'lsa-da, ularning til evolyutsiyasidagi rolini absolyutlashtirib bo'lmaydi: tilda tejamkorlikka ham, qisqaruvga ham qarshi turuvchi tendensiya va hodisalar mavjud, masalan, tildagi ortiqchalik xususiyati va uning so'z darajasidagi alohida hollari - proteza va pleonazm.

Kalit so'zlar: Tendensiya, inson dangasaligi, fiziologik quvvat, nutqiy faoliyat, komponent, umuminsoniy tendensiya, ekonomiya.

ЭКОНОМИЯ В РАЗГОВОРНОМ СТИЛЕ ПРАГМАТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА

Тоирова Гули Ибрагимовна

*док.фил.наук. доцент кафедры узбекского языкознания, Бухарский
государственный университет*

Аннотация: В данной статье принцип экономии является одним из факторов, характеризующих развитие языка, его сущность в языке, обеспечивающим максимальную передачу информации за короткий промежуток времени, иными словами, способствующим совершенствованию коммуникативной функции языка. Он стремится избавиться от слов, слогов и грамматических форм, не несущих информации и не помогающих объяснить. Роль языка в эволюции языка не может быть абсолютной: в языке есть тенденции и явления, противостоящие как строгости, так и контракция, например, избыток языка и его частные случаи на уровне слова - протез и плеоназм.

Ключевые слова: Склонность, лень человека, физиологическая сила, речевая активность, компонент, общечеловеческая тенденция, экономия.

SAVING IN TALKING STYLE PRAGMATIC PROPERTIES

Toirova Guli Ibragimovna

*Bukhara State University, Associate Professor of the Department of Uzbek
Linguistics, Doctor of Philology.*

Abstract: In this article, the principle of economy is one of the factors that characterize the development of the language, its essence in the language, ensuring the maximum transfer of information in a short period of time, in other words, contributing to the improvement of the communicative function of the language. He seeks to get rid of words, syllables and grammatical forms that do not carry information and do not help explain. The role of language in the evolution of language

cannot be absolute: there are tendencies and phenomena in the language that oppose both strictness and counteraction, for example, an excess of language and its special cases at the level of the word are the prosthesis and pleonasm.

Key words: Inclination, human laziness, physiological strength, speech activity, component, universal human tendency, economy.

Kirish. Tejamlilik tamoyilining sintaktik sathdagi ko'rinishi ellipsis, ya'ni gap mazmuniga ta'sir etmasdan ba'zi so'zlarning tushirilishi situatsiya, kontekst va ma'lum so'zlar semantikasi bilan bog'liq holda amal qiladi, bu kabi tushirish ko'pincha ma'no va effektni kuchaytiradi, shuning uchun notiqlik san'atida ritorik figura sifatida qo'llanilgan [4].

Til nutqda voqe bo'ladi, xuddi shuningdek, til qonunlari ham nutqda reallashadi, til tejamkorligi ham bundan mustasno emas. Tildagi tejamkorlik deganda shunday jarayonlar nazarda tutiladiki, ular tufayli til murakkab fikrlarni soddaroq shaklda ifodalash uchun mukammalroq shakllar ishlab chiqaradi. Bunday shakllar alohida individlarning nutqiy faoliyatida yaratiladi va umuman til darajasidagi har bir tejamkorlik turi nutq darajasidagi xuddi shunday holga mos keladi, chunki til darajasidagi har bir tejamkorlik turi nutq darajasidagi bosqichni bosib o'tish evaziga amalga oshadi...[6]. Sistemaning rivojiga ko'maklashuvchi qonuniyatlari xususida so'z ketar ekan, ularning amal qilinishida tashqi omillarning rolini oshirib yuborish o'rinli emas. Sistemaning taraqqiyoti ichki va tashqi omillarning ta'siri mahsuli bo'lganidek, sistema ichidagi qarama-qarshilik tejamkorlik tamoyilining amalda bo'lishini taminlaydi. har qanday struktura o'z rivojida faqat tashqi ta'sirlar doirasiga tushib qolmaydi, balki hal qiluvchi omil sifatida sistemaning ichki qarama-qarshi tendensiyalari kurashi natijasida sistema tuzilishini buzish va qayta qurishga bo'lgan intilish hal qiluvchi rol o'ynaydi [7]. Til egalarining nutqiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi tejamkorlik tamoyili tildagi ortiqchalik xususiyati bilan to'qnashadi. Tilda haddan ziyod ortiqchalik ko'p. Shuning uchun til egalarining o'zgaruvchan ehtiyojlariga tezda va butunlay moslasha olmaydi [8]. Natijada so'zlovchida hamisha ana shu ortiqchalikni bartaraf etish hisobiga o'z fikrini qisqaroq qilib uzatish imkoniyati bo'ladi. Ortiqchalikni tilning maksimal aniqlikka intilish xususiyati vujudga keltiradi, tushunchalarni ularning moqiyatiga mos ravishda to'liq xarakterlaydigan birliklar tanlash til tabiatini belgilab beruvchi xususiyatlardan biri, deyish mumkin. Binobarin, aniqlikka intilish nutq zanjirida ortiqcha unsurlar bo'lishiga olib keladi. Ayniqsa, og'zaki-so'zlashuv nutqida ortiqchaliklar juda ko'p bo'ladi. Ularning ba'zilari hech qanday yangi axborot tashimaydi, shuning uchun ular ortiqcha bo'lib, til unsuri shaklini murakkablashtiradi. Tildagi ortiqchalik... tilning tovush tomonida o'zgarishlarni taqozo qiladi. Buning natijasida til tizimi tovush o'zgarishlariga nisbatan qotib qolgan struktura sifatida namoyon bo'lmaydi. Demak, tilning barcha sathlariga ortiqchalik xos va bu holat tejamkorlikka sharoit hozirlaydi. Tejamkorlik ortiqcha elementlarning paydo bo'lishi va bartaraf etilishi bilan bog'liq hodisadir. Shuni ham alohida qayd etib o'tish kerakki, tilshunoslikda tejamkorlik tamoyilining til taraqqiyoti va amal qilinishidagi rolini tan olish bilan birga uni inkor qilish hollari ham mavjud. R.A.Budagov tejamkorlik tamoyili tilda mavjud emas, deb xulosa chiqaradi. Tejamkorlik tamoyilining tilda mavjudligini inkor qilish obyektiv borliqdagi reallikni tan olmaslikdir.

Adabiyotlar sharhi. Jahon tilshunosligida tildagi tejamlilik masalasiga doir bir qator tadqiqotlar olib borilgan, biroq tilshunoslik tarixida mazkur tamoyillarni o'zaro qarama-qarshi qo'yish ustun bo'lib, ularning o'zaro dialektik aloqasiga jiddiy e'tibor

berilmagan. Tilda tejamlilik tamoyilini ilmiy asosda o'rganish O.yespersen, V.Uitni, Sh.Balli, A.Martine, Boduen de Kurtene, R.Budagov, ye.Polivanov, A.Potebnya, B.Serebrennikov, V.Borisov, A.Nurmonov, N.Maxmudov, R.Budagov, Yu.Apresyan, M.Trofimov, M.Yusifov, G.Infantova, A.Skovorodnikov, E.Xaugen va boshq., G.Grays, D.Salixova, ye.Zemskaya, J.Eltazarov, I.Arjanova, V.yelkin, O.Golovach, F.Ibragimova, A.Kovrigina kabi tilshunoslar tomonidan o'rganilgan.

“Tavtologiya” atamasini birinchi bo'lib L. Vitgenshteyn o'zining “Mantiqiy-falsafiy risolasida” qo'llagan. Tavtologiya deb, u haqiqatdan ham oddiy gaplarda “haqiqat” yoki “yolg'on” ma'nolari qo'llanilgan har bir imkoniyatga mos tushadigan, to'g'ridan-to'g'ri o'xshash gaplarni tushungan. Vogenshteyn va ularning izdoshlari (R. Karnap, N. Bar-Xillel, Ya. Xintikka, G. Frege, B. Rassel, G. eman, L. Borkovskiy) tavtologiyani mantiqiy-matematik jihatdan tahlil qilishgan. Tilshunoslikda tejamkorlikning o'rganilishi o'zining anchagina uzoq tarixiga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tejamkorlikning funksional jihatdan tahlil qilingan tadqiqotlarni belgilab o'tish joiz. L.K. Raxmoqulova ham ingliz tilidagi asosiy tavtologik tarkiblarning turlarini ba'zilarini ajratdi. Shunday qilib, tejamkorlikning majmuaviy tabiati, ularning ko'p vazifaviyligi va turli tarkibililigi, tilshunoslikda ularni o'rganish ko'p yondashuvlar mavjudligi bilan tushuntiriladi. Oxirgi yillarda turli til birliklari kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan tadqiq qilinmoqda. Oxirgi 40 yillarda ilm-fan paradigmasining to'liq o'zgarishi – ilmiy sifatida qabul qilinishi uchun nazariyaning, gipotezaning, mulohaza yuritishning qanaqa talabalarini qoniqtirish zarurligi haqidagi tasavvurlar. Bu o'zgarishlar “kognitiv revolyusiya” deb ataladi. Til birliklarining tadqiqoti jarayonida doimiy ravishda, til muntazam tizim emasligini isbotlovchi to'liq yangi va qisman yangi holatlar kuzatildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Badiiy asarda bir qahramon ikkinchi bir qahramonga “Uyat bo'ladi!..” (U.Hamdami, Muvozanat) deb aytar ekan, bu situatsiyadan xabardor bo'lish uchun badiiy asardagi ushbu badiiy konfliktidan xabardor bo'lish kerak bo'ladi. Voqyelikdan xabardor bo'lmagan kitobxon nima haqida gap borayotganini birgina “Uyat bo'ladi!..” gapidan anglab ololmaydi, ya'ni bu keng tushuncha sanaladi: 1. Gap qaytarish uyat bo'ladi. 2. O'zidan kattaga salom bermaslik uyat bo'ladi. 3. O'ylamasdan gapirish uyat bo'ladi. 4. Tarbiyaga zid xatti-harakatlar uyat bo'ladi kabi. Bunda holatning yuzaga chiqishiga asos bo'lgan voqyelik ifodalanmay qolgan.

Aslida bu gap katta lavozimda ishlagan va yetarli mol-mulk orttirgan o'limi yaqinligini sezib qarindosh-urug'larini chaqirib mol-mulkini taqsimlayotgan, shahardagi uyini oddiy hayot kechiruvchi qarindoshining maktabda a'lo o'qiyotgan o'g'liga kelajakda o'qishi uchun qoldirishini aytganda (chunki u bolaning ota-onasi unga sharoit qilib berishga kuchi yetmasligini bilgani uchun uni qo'llab-quvvatlash maqsadida shunday qilgan), bu gap vasiyatdan norozi bo'lib qaynog'asi unga ko'pchilik oldida o'ylamasdan asossiz gapirgani uchun boshqa qarindoshi tomonidan aytilgan. Quyida badiiy asardan keltirilgan ikkinchi misolga diqqat qaratamiz: Axir Alini tutamiz. Qo'llarini orqasiga qayirib, o'zining belbog'i bilan mahkam bog'laymiz-da, so'kib, urib maktabga surgaymiz. - Yo'q, bormayman! - deydi Ali oyoqlarini tirab. (Oybek).

Keltirilgan matnda nutq obstanovkasi, situatsiya avtor nutqi orqali ifodalangan avvaldan bayon qilingan, shu sabab Alining nutqida «maktabga» so'zi ifodalanmagan, natijada situativ ellipsis yuzaga keltirilgan. Tushirilgan bo'lak esa harakatning qaerga yo'nalganligini, o'rnini ko'rsatmoqda. Badiiy asardan keltirilgan yana bir misolga diqqat qaratamiz: Bu uydagi hamma narsa xatga olingandan keyin tashqariga chiqildi.

- Otxonaga, - dedi Safarov.

Safarov bilan Ro'zmat otxonaga ketayotganda Mirhomidxo'ja Qambaralini sekin turtdi. (A.Qahhor).

Situatsiyadan ma'lumki, uyda tintuv o'tkazilmoqda va uy egasining bor mulki ro'yxatga olinmoqda. Shunda tashqariga chiqqandan so'ng boshliqning ko'zi otxonaga tushadi va otxonani ham tintish kerakligini tushunib «otxonaga» deb baqiradi. Situatsiyadan ma'lum bo'lganligi uchun kesim vazifasidagi harakatni anglatuvchi «kiramiz» so'zining qo'llanishiga imkon qolmagan.

Tildagi tejamkorlik tamoyili so'zlovchi (individd)ning ruhiy, psixofiziologik quvvatini til birliklarini qisqartirish, tushirib qoldirish orqali tejash, muloqotga ketadigan vaqtni kamaytirish, tildagi ortiqchalikni bartaraf etish ehtiyojlaridan kelib chiqib, zohir bo'ladigan umumtil tendensiyasidir, tejamkorlik o'z mohiyatiga ko'ra nutqiy aloqani osonlashtirishga xizmat qiladi va uzatilayotgan axborotning sifatiga salbiy ta'sir o'tkazmaydi.

Elliptik diskursiv metonimiya muayyan so'zlashuv nutqida semantikani to'la saqlab qolish uchun matn strukturasi tizimli joylashtirish talabiga ko'ra yuzaga keltiriladi. Metonimiya konstruksiyadagi so'zma-so'z ma'no ifodalash tartibini buzadi, biroqgap semantikasini saqlab qoladi: Qani, -dedi Qodirov, -olti-oltidan cho'zinglar. (S.Ahmad, Yo'g'on tepa). Ushbu gapdagi olti-oltidan so'zini o'zbek darrov tushunadi, chunki bu o'rinda pul yig'ish haqida gap ketayotganini darrov fahmlaymiz, olti-oltidan stimol ifodasi «pul» assotsiatini yodga tushiradi. Bu o'rinda so'zlovchining ixchamlikka intilishida psixologik vaziyat ham muhim rol o'ynagan: so'zlovchi shoshib turganligi, kimningdir kutilmaganda kelib qolishidan xavotirlanishi natijasida niyatiga mos keluvchi metonimiyani tanlagan. Matn davom ettirish asnosida fikr to'la aniqlashtiriladi: Yo'g'on tepaga borib, bir oshxo'rlik qilamiz. Apsamatov jon deb turgan ekan, darrov olti so'mni stolga tashladi. (S.Ahmad, Yo'g'on tepa).

Metonimiyaning o'ziga xos belgisi nutqjarayonining jonliligini ta'minlaydi, yana bir belgisi shaxsning nutqiy ijodkorligini aniqlashga yordam beradi. Misol: -Agar mumkin bo'lsa, shuni ham bilsamki, bu kungi shalg'am sho'rba katta otin bibining qo'llaridan tanovul qilinadirmi yoki kichik otin bibining? -Mehmon uchun buning farqi yo'qdir... -Biroz yanglishasiz Ra'nobonu, -dedi Anvar, -chunki qo'ldan-qo'lning katta farqi bor. -Farqi bo'lsa... bu kun kichik otin bibining qo'llaridan shalg'am sho'rba tanovul qilasiz. (Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon).

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, tejamkorlikning sintaksisdagi faoliyati tilning boshqa sathlaridagi faoliyatidan nihoyatda yuqoriligi adresat va adresantning qisqa, ixcham so'zlashga intilishiga ko'ra bo'lib, badiiy nutqda qahramonlar nutqi muallif tomonidan puxta o'ylangan va tashkillashtirilganki, og'zaki nutqning o'ziga xos xususiyatlari ongli ravishda samarali tanlab olinganki, ular kitobxonda to'liq tabiiylik va «tirik» taassurotni uyg'otadi. Badiiy matnda muallif va qahramon nutqini struktural-semantik jihatdan farqlovchi va aynan qahramon nutqi uchun xoslangan so'z-gap modellari tejamkorlikka intilish natijasi bo'lib, qahramonni turli xarakter- xususiyatiga ko'ra tavsiflaydi. Insonning aqliy harakatlarni aslida intellekti darajasini belgilar ekan, qahramonlar nutqida verbal vositalar o'rini noverbal vositalar bilan to'ldirishga intilish ekstralingvistik, psixofiziologik omillar bilan bog'liq bo'lib, badiiy matnning lingvopoetik imkoniyatlarini namoyon qiladi va milliy xarakter kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. O'zbekiston, 7-jild, -B. 89



2. Ахманова О.С. Словар лингвистических терминов. –М.: Сов. энциклопедия, 1966. -С. 52
3. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – Москва: Изд. иностр. лит., 1955. – С.176
4. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. Уч. пособие для студентов пед. институтов по спец. 2101 “Русский язык и литература”. –М.: Просвещение, 1987. -С. 72
5. Гафуров А. Имя и история. Об именах арабов, персов, таджиков и турков. Словар. – М.: Наука, 1987. -С.116-221
6. Джураев Б. Шахрисабзский говор узбекского языка. –Ташкент: Фан, 1964. -С.50
7. Дмитриев Н.К. Неустойчивое положение н, р, л в тюркских языках// Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков/ Под общей ред. Чл.-корр. АН СССР Н.К.Дмитриева. –М.: Изд-во АН СССР, 1955, ч. 1. Фонетика. -С. 279-280
8. Киссен И.А. Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка (высокочастотная лексика подъязыка художественной прозы). –Ташкент: Укитувчи, 1972. -С.68 Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. –Л.: Изд-во АН СССР, 1960. -С. 44
9. Кошгарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғатит турк): уч жилдлик. –Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1960. И-т. -Б. 200-201 Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. –М.: Просвещение, 1969. - С. 73
10. Махмудов Н. Диалогларда эллипсис. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – №5. – Б.72-76
11. Карданова М.А. Русский язык. Синтаксис: учебное пособие. 2-е изд. – Москва: Флинта: Наука, 2012. – С.157.
12. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутки синтаксиси масалалари. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 58.
13. Падучева Е.В. О семантике синтаксиса (Материалы к трансформационной грамматике русского языка). – Москва: КомКнига 2007. – С.177.